

JALOLIDDIN DAVONIYNING PEDAGOGIK AXLOQIY QARASHLARI

Akmal Axmedov Yusufovich

FarDU Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

A'zamova Mashhuraxon Nodirxon qizi

FarDU Pedagogika yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari, xususan uning "Axloqi Jaloliy" asaridagi pedagogik axloqiy tamoyillarga bo'lgan munosabati, kasblarning inson qobiliyatiga moslik darajasi, olim fikrlarining hozirgi zamon pedagogikasidagi o'рни, inson kamolotida ota-onaning, mullimning va muhitning alohida o'z o'рни mavjud ekanligi, birini ikkinchisidan ayro tasavvur etib bo'lmasligi to'g'risida bayon etiladi .*

Kalit so'zlar: *pedagogika, tajriba, riyoziyot, axloqshunoslik, psixologik, fiqhshunoslik, kasb-hunar, qobiliyat, ta'lim, tarbiya.*

Ta'lim va tarbiya masalasi hamma zamonlarda ham insonlarni o'ylantirgan, izlanishga majbur qilgan. Davrlar almashib, makonlar o'zgargan taqdirda ham insonlar fe'lidagi ijobiy va salbiy xislatlar jangi hamon davom etib kelmoqda. Inson ongi takomillasha borgan sari tarbiya usullari, ta'lim mezonlari ham mukammallashadi. Lekin tarixiy tajribasiz, o'z- o'zidan kimnidir tarbiyalab bo'lmaydi. Dunyoda biror bir ota yoki ona hamda tarbiyachi yo'qki , tarbiya usullarini o'zi yaratgan, o'zicha bir metodni qo'llagan bo'lsa. Otalikni otalardan, onalikni onalardan, qaynonalikni qaynonalardan o'rganib bir ishga qo'l uriladi , odatda. Muallimlar ham bu borada o'zidan avvalgi ustoz tajribalariga tayanadi. Xatolarini takrorlamaslikka, yutuqlari sababidan o'rnak olishga harakat qiladi. Shuningdek, pedagogic fikrlar ham asrlar osha sayqallanib, to'ldirilib boriladi. Sharq uyg'onish davrlarining fidoyi darg'alari, o'zbek xalqining buyuk daholari bo'lmish Al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ulug'bek, Bobur kabilar qatorida Jaloliddin Davoniyning asarlari ham ta'lim va tarbiya ilmidagi noyob manbalar sirasiga kiradi.

Jaloliddin Davoniy sharq olimi, faylasufidir. Yoshligidan ilm-fanga, xususan fiqhshunoslikka qiziqadi. Maktabni bitirgach, Sherozga kelib madrasada tahsil ko'radi. So'ng Sheroz shahri qozisi etib tayinlanadi. Qozilikdan iste'foga chiqqach, mudarrislik qiladi. Umrining oxirida o'z qishlog'iga qaytib, ilmiy faoliyat bilan band bo'ladi.

U falsafa, axloqshunoslik, mantiq, fiqh, falakiyot, riyoziyot va handasa fanlari muammolarini tadqiq qilib asarlar yozdi. Davoniyning asosiy asarlari: "Axloqi Jaloliy", "Risolatul-xuruf" ("Harflar haqida risola"), "Risolayi isboti vojib" ("Zaruriyatning isboti haqida risola"), "Risola ul-mufradot" ("Moddalar haqida risola"), "Risolayi fi tavjix ultashbih" ("Majoz talqini xaqida risola"), "Risola dar elm un-nafs" ("Ruhshunoslik

to'g'risida risola"), "Tariqati tarbiyat ul-avlod" ("Bolalarni tarbiyalash usuli") va boshqalar Davoniyning fors va arab tilida bitilgan qo'lyozma hamda toshbosmada bosilgan risolalari dunyoning ko'p kutubxonalarida, shu jumladan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Davoniyning axloqiy tarbiyaga bag'ishlangan, pedagogika ilmi uchun ahamiyatli sanalgan "Axloqi Jaloliy" asari dunyoning ko'p tillariga tarjima qilingan. Asar uch qismdan iborat. Birinchi qism – axloq faniga, ikkinchi qism – "Odamning ichki holati" oilaviy hayotiga, uchinchi qism – "Shahar (davlat)ni boshqarish va podshohlar siyosati" deb nomlanib, unda muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar ko'tariladi. Asardagi barcha fikrlar o'qishga, o'rganishga va tahlil qilishga arziydi

Davoniy asarida inson o'zining aqliy qobiliyatini tarbiyalash uchun quyidagilarga amal qilish lozimligini uqtiradi:

- 1) zehn o'tkirligi;
- 2) fahmlilik;
- 3) zehn ravshanligi;
- 4) bilimni tez egallash qobiliyati;
- 5) qo'yilgan muammoni tezda anglashi;
- 6) yodlash qobiliyati;
- 7) xotira.

Inson hayotining eng ko'p davri bevosita uning kasbiy faoliyati bilan aloqador ekanligidan kelib chiqib, Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb-hunarni uchga bo'ladi:

- 1) inson aqliy faoliyati bilan bog'liq;
- 2) ta'lim-tarbiya natijasida vujudga keladigan;
- 3) kishilarning shijoati, jasurligi bilan bog'liq.

Faylasuf har qaysi turdagi kasbni kishi o'z imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlashi zarur deb ta'kidlaydi. Ushbu fikrlar hozirgi kunda ham yoshlarning qobiliyat va iqtidorlarini o'rganishga doir pedagogic psixologik tadqiqotlarda amaliy isbotini topmoqda.

Davoniy insoniy fazilatlarni to'rtga bo'ladi: donolik, adolat, shijoat, iffat. Qolgan fazilatlarni esa shu to'rt fazilatning ichiga kiritadi va har qaysi ezgu fazilatni inson hayotidagi ahamiyatini o'z asarida ochib beradi. Davoniy g'azabni eng og'ir ruhiy kasallik deydi. G'azab kishining katta nuqsoni, kamchiligi, aqlsizligidir, agar aql g'azab va hissiyotga bo'ysunsa, kishi hayvon darajasiga tushib qolishi mumkin, chunki hayvonning aqli bo'lmaganligi tufayli u g'azab va quvvatini o'ziga buysundira olmaydi. Inson aqli bo'la turib g'azabni buysundira olmasa, buni hech qachon kechirish mumkin emas. Darhaqiqat, dono xalqimizda "Jahl kelganda, aql ketadi." degan naql bor. Hadisi shariflarda esa "Eng kuchli inson g'azab kelganda, uni yenga olgan insondir", deya rivoyat qilinadi. Olim fikrlarida ayni shunday mazmun o'z ifodasini topgan.

Davoniy o'z asarida insonga ijtimoiy mavjudot sifatida qaraydi, inson faqat jamiyatda, kishilar orasida, ular bilan munosabatda shakllanadi, degan fikrni ilgari suradi. U o'tmish olimlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlaridagi an'analarni rivojlantirgan holda o'z qarashlarini mohir ruhshunos olim sifatida ham talqin etadi, uning fikricha bola yaxshi fazilatlarni ta'lim-tarbiya natijasida egallashi mumkin. Chunki, bolada his-tuyg'u juda erta shakllana boradi, u ulg'aya borgan sari ayrim juz'iy narsalarni ham ajrata boshlaydi, tana a'zolari mustahkamlanadi, narsa va hodisalarni bir-biridan farqlay boshlaydi, ezgulik va yovuzlik to'g'risida tasavvurga ega bo'la boshlaydi, aqli to'lishib, ongi o'sadi, deydi olim. Ana shu paydo bo'lgan sezgi va aql orqali tashqi dunyoni bilishi, ko'rmagan narsalarini ham tasavvur qilishi mumkin deydi. Davoniyning fikricha bolaning tarbiya olishi, odob-axloqli bo'lishi uning keyingi tarbiyasiga ham bog'liq. Chunki hayotda har kuni bola ko'radigan, muloqotda bo'ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon ta'sir etadi. Bolada har kuni kerak bo'ladigan insoniy xislatlar: yurish-turish qoidalari, xushmuomalalik, ota-ona va boshqa katta yoshlilarni hurmat qilish, to'g'rilik va rostgo'ylikni o'rganish, shirinsuxanlik, kamtarlik, so'zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turmushda o'rganiladi. Shunga ko'ra bunday xislatlarni bolalarda har kuni tarbiyalanib borilishi muhim. Doimiy takroriy tarbiya usullari odatlarni, odatlar takrori esa fazilatlarni shakllantiradi. Bunday tarbiyada esa ota-ona oldiga katta vazifalar qo'yiladi. Ota va ona bola tarbiyasida bab-baravar mas'uliyatlidir, deydi Davoniy. Shu o'rinda ota ona tarbiyasini olgan bola bilan otasiz yoki onasiz o'sgan bolaning tarbiyasi o'rtasidagi farqlar yaqqol ko'z oldimizga keladi. Bolaning mardlarcha jasur, bir so'zli, diyonatli bo'lib yetishishida otaning o'rne ahamiyatli bo'lsa, sabrlilik, yumshoq ko'ngillilik, sarishtalik kabi xislatlar onadan o'zlashtirilib boriladi. Ota bolaning yaxshi fazilatlarni egallab, kasb-hunar o'rganib borishi, ilm-fanni chuqur o'zlashtirib olishi uchun moddiy asos, ya'ni kiyim-kechak, kerakli buyumlar bilan ta'minlaydi. Ona bola tarbiyasida asosiy qiyinchiliklarni boshidan kechiruvchi sanaladi. U bolaga yashash uchun quvvat beradi, ehtiyotlab asraydi, mehr-shafqatini ayamaydi.

Bola tarbiyasida ota-ona bilan bir qatorda maktabga chiqqandan so'ng muallim ham javobgar sanaladi, deydi olim. Ushbu fikrlar qomusiy olim Ibn Sinoning ham axloqiy qarashlarida alohida ta'kidlanadi. Buning uchun muallimning o'zi ham yaxshi tarbiya topgan bo'lishi shart. Hozirda oliy o'quv yurtidagi bo'lajak muallimlarning axloqiy kamolotiga berilayotgan kuchli e'tibor ham aynan ajdodlar tajribasi hamda tavsiyalari ortidan qaror topmoqda. Shu o'rinda Davoniy muallimning xislatlariga, bola va uning o'rtasidagi munosabatlarga alohida e'tibor beradi. Davoniy muallimni «Ma'naviy padar» deb ataydi. Chunki ota bolani jisman hayotga keltirib, jismonan tarbiyalasa, muallim uni ma'naviy jihatdan kamolotga etkazadi, deydi olim. Ruh qanchalik badanga yaqin tursa, muallim ham tarbiya borasida ota-onaga shunchalik yaqin deb ko'rsatadi. U ota-ona tarbiyasi bilan muallim tarbiyasini taqqoslar ekan, muallimning tarbiya usuli, metodlari ota-onanikidan yuqoriroqdir, deb ta'kidlaydi.

Chunki, ota-ona tarbiya berish mezonlari, metodlari bilan muallimchalik qurollanmagan, tarbiyada his tuyg'ularga beriluvchan bo'ladi, muallim esa tarbiya berish bilan birga ilm cho'qqilarini egallashi uchun ham zahmat chekadi va shogirdning olgan ta'limi va tarbiyasi umrbod uning hayot yo'lini belgilab beradi, deb aytadi. Bu yo'lning qanchalik ravon, muhtasham va havasga arzigulik bo'lishi esa kishining qay darajada bilim va tarbiyani o'zlashtira olishiga ham bog'liq. Davoniy insonning ma'rifatli, yuksak fazilatli bo'lishida tabiiy fanlarning roli katta, deydi. Matematika, astronomiya, tibbiy fanlar jamiyatga ulkan foyda keltiruvchi ilm sohalaridir, deb biladi. Hozirgi davrda ham bu fanlarning nufuzi, ahamiyati salmoqlidir. Riyoziyot fanini o'rgangan kishining tabiati qat'iy va sabotli bo'ladi, deydi. Tib ilmining esa jamiyatga foydasi haqida gapirib, tabiblarga zarur bo'lgan bemorga tashxis qo'yish masalalariga to'xtab o'tadi. Tabib bemorga to'g'ri va aniq tashxis qo'ygandagina bemorni davolash kerakligini uqtiradi. Tabib-u shifokorlarga har kim hayotida bir marta bo'lsa ham muhtoj bo'ladi, albatta. Bunday payt tabibning ilmiy salohiyati, iqtidoridan tashqari undagi xushfe'llik, shirinso'zlik, barchaga birdek yordam berish hissining borligi bemorning yanada tez va oson tuzalib ketishiga zamin yaratishi olim fikrida tasdig'ini topgan.

Davoniy mardlik va shijoatkorlikni ham insonning eng zarur fazilatlaridan, deb hnisobladi. U shijoatga kamtarlik, yumshoq fe'llik, botirlik, sabr-matonat, chidamlilik kabi sifatlarni kiritadi. Shijoatkorlik ham aqlga bo'ysunishi kerak deydi. Davoniy askarlarni shijoatli, jasur kishilar deydi, chunki, ular davlat chegarasini qo'riqlaydi, davlatni har tomonlama qo'llab-quvvatlashi, moddiy yordam berishi zarur, deb ko'rsatadi. Ba'zi kishilar tashqi ko'rinishidan shijoatli ko'ringanlari bilan jasurlik va shijoatni o'zlarining manfaatlari yo'lida namoyon etadilar. Bunday xatti-harakatlarni shijoatkorlikka kiritish mumkin emas, deydi. Darhaqiqat, shijoat manfaat uchun xizmat qilaversa bora-bora u bezorilikka aylanib qolishi, jamiyatga zarar yetkazishi mumkin. Olim har bir kishi haqiqiy sevgiga munosib bo'lishga intilishi, sevgiga vafosizlikdan turli razilliklar paydo bo'lishi, axloqsiz xatti-harakatlardan yomonliklar avj olishi mumkinligini qayd etadi. Qalbi sevgiga limmo-lim to'lgan insondan esa aslo yomonlik chiqmaydi. Davoniy ilohiy sevgini tan olsa ham, mavjud dunyodagi sevginida inkor etmaydi. U kishilarni noz-ne'matlardan bahramand bo'lish, ilm-fan, ma'rifat, tabiatni o'rganishga, ta'lim tarbiya bilan shug'ullanishga chaqirdi. Davoniyning tarbiya tizimida odamlarda uchraydigan nuqson va zararli odatlarni bartaraf etish haqidagi fikrlari ham ahamiyatlidir. Masalan, Davoniy salbiy ruhiy quvvatlar: jahl, g'azab, hasad, g'amginlik, dangasalik, xudbinlik va boshqalar haqida gapirib, bular ruhiy jarayon bo'lib, ularni davolash yo'llari, usullari haqida gapiradi. Chunki bu ruhiy kasalliklar ham inson tanasidagi kasalliklarga o'xshab, davoga muhtoj deydi, uning fikriga ko'ra kishi tanidagi kasalliklarni tibbiyot yo'li bilan davolansa, kishilarning yaramas odatlarini ruhiy ta'sir natijasida davolash mumkin. Jismoniy davo ovqat yoki dori-darmon vositasida amalga oshadi, ruhiy kasalliklarni davolash esa, yuqoridagi usullardan birmuncha farq qiladi.

Demak, Davoniy kishilarning salbiy ruhiy holatlarini davolash mumkin, deb ishonadi va ularni yaxshi maslahat berish, soʻz bilan, jazo va mehnat qildirish yoʻllari bilan tarbiyalasa boʻladi, deb hisoblaydi. Faqat ushbu usullar meʼyorida, asosli tarzda, vaziyatdan kelib chiqib qoʻllanilsagina, foyda berishi mumkin. Davoniy insoniy xislatlar: mehnatsevarlik, toʻgʻrilik, insoniylik, yaxshilik, xushmuomalalik, odillik, donolik, sadoqatlilik, vafodorlik va boshqa xislatlarni oliy deb baholaydi. U insondagi barcha xislatlarni aqliy faoliyat bilan bogʻlaydi. Bu xislatlar yillar davomida oʻzgarishi, sayqallanishi va yoki almashishi ham mumkin. Hayot yoʻlidagi turli qiyinchiliklar, sinovlar manmanni kamtarga, baxilni saxiyga, ishyoqmasni mehnatsevar insonga aylantirib qoʻyishi ham bor gap. Lekin yomon feʼlli insonning boshiga ish tushishini kutmasdan ham uni oʻzgartirish, toʻgʻri yoʻlga solish yoʻllarini olim oʻz asarida bayon qiladi.

Davoniyning ilm-maʼrifat, taʼlim-tarbiya va axloq toʻgʻrisidagi fikrlari taʼlim-tarbiya tarixida muhim ahamiyatga ega. Chunki u mukammallikka tomon qisqa yoʻllarni oddiy qilib koʻrsatib bera olgan, kishilarning baxt-saodatli boʻlishi uchun bergan tavsiyalari hozirgi davrda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq. Davoniyning aqliy tarbiya, insoniy fazilatlarini tarkib toptirish borasidagi tarbiya usullari Sharq pedagogikasining qimmatli xazinasini boʻlib hisoblanadiki, bu tavsiyalardan biz taʼlim-tarbiya jarayonida foydalansak, milliy qadriyatlarimizning davom etishiga hissa qoʻshamiz, ajdodlarning axloq toʻgʻrisidagi fikrlarini inobatga olish natijasida axloqiylikning milliy tamoyillariga murojaat etgan boʻlamiz va u taʼlim-tarbiyani tom maʼno egallash va ulashishda eng munosib yoʻl boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.G. Izbullayeva “ Pedagogika nazariyasi va tarixi” 2022. 192 198 betlar
- 2.Yusufovich, A. A. (2022). BO ‘LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASLALARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 120-124.
- 3.Yusufovich, A. A. (2022). BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(10), 224-227.
- 4.Yusufovich, A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 1157-1161.
- 5.Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. Современные

инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 59-60.

6. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 8(7).

7. Yusufovich, A. A. (2022). Developing the communicative competence of future teachers is an effective measurement for self-organization. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(1), 302-304.

8. Yusufovich, A. A. (2022). BO 'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASLALARI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 120-124.

9. Yusufovich, A. A. (2022). DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE PSYCHOLOGISTS IS THE MOST IMPORTANT CONDITION FOR INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION. *Science and Innovation*, 1(1), 572-586.

10. Axmedov, A. Y., & A'zamova, M. (2023). OILADA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 687-693.

11. Axmedov, A. Y., & Sherqo'ziyeva, Z. F. (2023). JADID MA'RIFATPARVARLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 432-436.

12. Axmedov, A. Y., & Sherqo'ziyeva, Z. F. (2023). PEDAGOGIK MULOQOTNING KOMMUNIKATIV ASOSLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 425-431.

13. Ahmedov, A., Turaboyeva, F., & Ulmasov, M. (2023, May). STUDENTS' PEDAGOGICAL OPINIONS TOWARDS THE MODULE-CREDIT SYSTEM. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education* (Vol. 1, No. 5, pp. 105-108).

14. Ahmedov, A., & Egamberdiyev, O. (2022). PEDAGOGICAL BASES OF IMPROVING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS. *Science and Innovation*, 1(3), 40-46.

15. Akhmedov, A., & Egamberdiyev, O. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Science and innovation*, 1(B4), 136-138.

16. Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. *Современные*

инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 59-60.

Internet manbalari

1. <https://arboblar.uz/uz/people/dzhaloliddin-davoni>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Davoniy_Jaloliddin
3. <http://www.genderi.org/samarqand-davlat-universiteti-pedagogika-kafedrasi.html?page=295>